

APPLIKATSIYA VOSITALARIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISH.

Abdullaeva Masuda

Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsent r.f.n.NamDU

Abdullaeva Moxidil Abdug'offor kizi

iqtidorli talaba

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tasavvurlarini boyitish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, applikatsiya, tasviriy faoliyatning barcha turlari kabi bolalarda ma'lum bilimlar, maxorat, tajribalarni ishlab chiqishni rivojlantirishga va shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan.*

Kalit so'zlar: *shaxsning shakllanishi, maktabgacha yoshdagi bolalar, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tasavvurlarini boyitish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, iste'dod , ijodiyot, applikatsiya, tasviriy faoliyat, bilimlar, maxorat, tajriba, ishlab chiqishni rivojlantirishga va shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan.*

Mamlakatimizda amal qilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim bosqichi bolalarni jismoniy, ma'naviy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashning dastlabki va eng muhim jabhasi hisoblanadi. Shuning uchun ham, aynan maktabgacha ta'lim yoshi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, u bilan birga tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, Prezidentimizning 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Respublikamizda maktabgacha ta'lim muassasalari ish mazmuni hamda sifatini oshirishga qaratilgan qator vazifalarni belgilab berdi. Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgach, uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ularning iqtidori va iste'dodini rag'batlantirishga e'tibor kuchaytirildi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy-intellektual salohiyatini oshirish, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi va takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev rahbarligida 2017 yil 16 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur muassasalarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik



hujjat — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 3261-sonli qarori, 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5198-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ 3305-sonli qarori qabul qilindi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tasavvurlarini boyitish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kundagi tarbiyaviy ishning ustuvor yo‘nalishidir. Bolalar har xil fe‘l-atvorga va aql darajasiga ega bo‘lgani kabi ulardagi iste‘dod hamda ijodiyotga bo‘lgan intilish ham turlicha bo‘ladi.

Applikatsiya tasviriy faoliyatning barcha turlari kabi bolalarda ma‘lum bilimlar, maxorat, tajribalarni ishlab chiqishni rivojlantirishga va shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar applikatsiyaning barcha jarayonlarini o‘zlashtiradi. Bu faoliyatga tayyorlash uchun mashg‘ulotlar bu mozaika bilan o‘yinlar, bolalar geometrik shakllarni yoyib ularni o‘ziga xosliklari, rangi, joylashish uslublari, naqshning yaralish prinsiplari bilan tanishadilar. Yopishtirmasdan qirqish applikatsiya jarayonini o‘zlashtirishga yordam beradi. Bolalar qog‘ozni qirqib, o‘yin uchun biletlar, bayroqchalar tayyorlashadi.

MTMda applikatsiya ishlarining quyidagi turlari qo‘llaniladi: tayyor shakllarni yopishtirish, shakllarni qirqish va yopishtirish. Bolalar shakllarni bo‘laklab yoki siluet qilib qirqishlari mumkin .

MTMda tasviriy faoliyat o‘z ichiga rasm chizish, plastilindan haykallar yasash, applikatsiya, konstruksiyalashtirish kabi mashg‘ulot turlarini oladi. Bu turlarning har biri bolalarning atrof-olam haqidagi taassurotlarini aks ettirishda o‘z imkoniyatlariga ega.

Applikatsiya mashg‘ulotlari jarayonida bolalar turli predmetlarning shakllari, qismlari va ular qirqib yopishtiradigan siluetlar bilan tanishadilar.

Siluetli tasvirlarni yaratish tasavvur va fikrning ishini talab qiladi. Predmetning asosiy xususiyatlari hisoblangan detallar siluetda bo‘lmaydi.

Applikatsiyadagi ranglar tasvir bilan solishtirganda katta ahamiyatga ega. Applikatsiya uchun umumlashgan shakl muhim. Bir rang boshqasidan keskin farq qiladi.

Applikatsiya tasvirlarini bajarish qo‘l muskullari, koordinatsiya harakatlari rivojlanishiga olib keladi.

Applikatsiya jarayonida bola qog‘oz va boshqa badiiy, tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlashning turli tasvirlash texnologiyalari bilan tanishadi: ya‘ni



bular, qirqish, yirtish, g'ijimlash, buklash, taxlash, yopishtirish, ezish va h.k.

Tasvirlashga o'rgatishda asliga qarab tabiiy sharoitda olingan tasvirni tashkil qilish asosiy didaktik material bo'lib hisoblanadi. Uning g'oyaviy jihatdan rang tusi, bo'yalishi qanchalik mazmunli bo'lsa, u shunchalik ko'p ijodiy qobiliyatni, layoqatlilikni faollashtirishga yordam beradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ijodiy faoliyatga to'g'ri rahbarlik qilish maktabgacha yoshdagi bolalarga ko'p hollarda yordam berishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiga e'tibor berish, pedagog- tarbiyachi va ota-onalarning unga jiddiy ravishda ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi bolalarning ijodiy faolligini oshishiga imkon beradi, ularning rasm chizish - jiddiy ish ekanligi, vaqtni bekorga sarflash emasligini tushunib yetishini tasdiqlaydi hamda bola shaxsiyati rivojlanishiga yaqindan yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" 2017 yil O'zbekiston.

2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

3. Shamsiddinovich M. A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TO 'G 'RI TASHKIL ETISH OMILI SIFATIDA: Musayev Ashurali Shamsiddinovich, Yangi asr universiteti o 'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 309-313.

4. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 1. – С. 146-149.

5. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 1. – С. 146-149.



6. Мусаев А. Ш. РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ //E Conference Zone. – 2022. – С. 125-128.

7. Мусаев А. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 115-117.

8. Irisbayeva Y. Using" Cluster" Method //Eastern European Scientific Journal. – 2018. – №. 6.

9. Irisbayeva Y. Future Educators Professional Readiness to Interact with Preschool Children //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.

10. Irisbayeva Y. PROFESSIONAL READINESS OF FUTURE EDUCATORS TO INTERACT WITH CHILDREN OF PRESCHOOL AGE //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 7.

11. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.

12. Yo I. MULOQOT JARAYONIDA BOLA SHAXSINI RIJOVLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 165-169.

13. O'tbosarovna I. Y. Pedagogical opportunities for improving the readiness of students to interact with children //Confrencea. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 268-270.

14. Ирисбаева Ё. У. ТЕОРИЯ ДЕТСКОЙ ИГРЫ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ //Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2023. – С. 26-32.

15. Ирисбаева Ё. У. СВЯЗНАЯ РЕЧЬ-ГЛАВНОЕ ДОСТИЖЕНИЕ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.

